

SALOHIIYNING “GUL VA BULBUL” DOSTONI O‘RGANILISHI

Gulchexraxon Turakulova Olyorbek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti , “Matnshunoslik
va adabiy manbashunoslik “kafedrası 1-bosqich magistranti
e-mail: gulchehratoraqulova51@gmail.com
Tel:(93)3395426

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asrda yashab ijod qilgan Salohiy hayoti va ijodi borasidagi qarashlar, uning “Gul va bulbul” dostoni o‘rganilish tarixi , qo‘lyozma va toshbosma nusxalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: doston , nusxalar, Salohiy, gul va bulbul, qushlar.

Аннотация: В данной статье говорится о взглядах на жизнь и творчество Салахи, жившего и творившего в XVIII веке, истории изучения его эпоса «Цветок и соловей», рукописей и литографических копий.

Ключевые слова: эпос, копии, Салахи, цветок и соловей, птицы.

Abstract: This article talks about the views on the life and work of Salahi, who lived and created in the 18th century, the history of the study of his epic "Flower and Nightingale", manuscripts and lithographic copies.

Keywords: epic, copies, Salahi, flower and nightingale, birds.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilgan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi” deb yozgan edi I.A Karimov. Istiqlol yillarida barcha fanlar qatori adabiyotshunoslik ilmida ham bir qadar yuksalish bo‘ldi. Adabiyotshunoslik ilmi umumiylikdan xususiylik tomonga taraqqiy qildi. Xususan, matnshunoslik ilmi fan sifatida maydonga chiqdi va ko‘plab fanlarning taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shdi. Jumladan, adabiyotshunoslikda va tilshunoslikdagi o‘rni yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mustaqillikdan keyin adabiyotimizning ochiq qolgan sahifalarini yangicha qarashlar va mezonlar asosida to‘ldirish, mumtoz ijodkorning xayoti va ijodini o‘rganishni ham kun tartibiga dolzarb vazifalardan biri sifatida qo‘ydi. XVII asrning oxiri va XVIII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Salohiddin Salohiy ijodiga oid manbalar, asarlariga doir muammolarini chuqur, atroflicha tadqiq etish, adabiyotimizdagi badiiy uslublar xilma-xilligi, har qaysi uslubning o‘ziga xos jihatlari, ularning qonuniyatlarini yuksak ilmiy mohiyatda o‘rganish hozirgi zamon adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turibdi.

Salohiyningning hayoti va ijodi haqida ma‘lumotlar juda kam. Nurmuhammad Nasafiyning bizgacha yetib kelgan yakka-yu yagona asari “Mazhar ul-musannifin” tazkirasidagi ma‘lumotlarda keltirilishicha, Salohiyning o‘zbek tilida “Gul va bulbul” hamda tojik tilida “Yusuf va Zulayho” dostonlari bor. “ Salohiyning “Gul va bulbul” dostonidagi ayrim parchalar Olim Sharafiddinov tomonidan 1945-yilda tuzilgan “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”da keltirilgan. Keyinchalik esa 1959-yilda nashr etilgan to‘rt tomlik “O‘zbek adabiyoti” to‘plamining uchinchi tomida ham qisqartirilgan holatda berilgan. Mustaqillik yillarida chop etilgan, filolog, tarixchi olim P. Ravshanovning “Qashqadaryo tarixi” (1995), “Naxshab va Kesh tarixi manbalari” (2005) va Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi arafasida chop etilgan “Qarshi tarixi” (2006) kitoblarida hamda shoir va tarjimon Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari” (2006) nomli tazkirasida Salohiy haqida deyarli bir xil, kamroqqina ma‘lumotlar keltirilgan”[9: 3].

Salohiddin Salohiyning hijriy 1153, milodiy 1740-yilda yozilgan “Gul va bulbul” dostoni uning ijodida salmoqli o‘rin egallaydi. Bu asar ham sujet ko‘lami va obrazlar ishtirokiga ko‘ra “Mantiq ut-

tayr” asariga javob tariqasida yozilgan dostonlardan biri hisoblanadi. Bu haqida doston ichida muallifning o’zi ham aytib o’tadi. Shu bilan birga, ”Salohiy “Gul va Bulbul”ning kirish qismida o’z asarini G’urbatiyning “Gulu Bulbul”i ruhida yozganligini qayd etadi” [3: 35] :

“Aytib G’urbatiykim bir kitobe,
Qo’yub otin Gulu Bulbul kitobi” [4: 2].

“Gul va bulbul” dostoni bugungi kunda adabiyotshunoslik, matnshunoslikning dolzarb tadqiqot obyekti bo’lgan asarlar sirasiga kiradi . Zero, hali hamon to’liq tabdil qilinib, yaxlit kitob holda adabiyot ahliga taqdim etilmagani uning o’rganilish zaruriyatini yanada oshiradi. Hozirgi kunda asarning toshbosma nusxalari O’zFA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida 343, 576, 577, 578, 579, 4002, 4248, 4249, 4250, 9143, 9593, 9594, 9595, 11021, 13857, 13858, 13859-raqamli inventarlar bilan toshbosma nusxalari, 3402, 5354-sonli qo’lyozma kitoblari ham saqlanadi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida ham 420 hamda 1295 raqamli toshbosma nusxalari mavjud. Bundan tashqari, ToshDO‘TAU qo’lyozma va toshbosma adabiy qo’lyozmalar fondida ham dostonning 1509 raqamli yana bir toshbosma nusxasi saqlanib kelinmoqda.

Ushbu doston muallif hayotlik davrida ko’chirilgan, jumladan, 577 raqamli inventar bilan saqlanadigan nusxaning oxirida uning ko’chirilgan davri va kotibining nomi ham qayd qilingan: Salohiyning “Gul va bulbul” dostoni hijriy 1153-yilda yaratilgan bo’lib, bu tarix kitobning xotimasida muallif tomonidan quyidagicha ifodalangan:

Bu kitob tarix qo’yningg’a san quch,
Bo’lubon bir mingu yuz ellik uch [5: 48].

Milodiy yil hisobida esa 1740-yilga to’g’ri keladi. Kotibning nomi esa quyidagicha bayon etilgan:“Tammam alkitob biavn Almalik alvahhob tammam”. Bundan ma’lum bo’ladiki, ushbu nusxa Malik Vahhob nomli kotib tomonidan ko’chirilgan ekan. “Salohiyning “Gul va Bulbul” dostonida insonparvarlik, halqchillik g’oyalari yuksak pafos bilan kuylanadi. Unda, garchi majoziy obrazlar ishtrok etsa-da, shoir o’zining aytmoqchi, hal qilmoqchi bo’lgan muammolarini inson, uning aql-zakovati, mehnati madh etiladi. Inson hayoti, turmushi, hayot jarayonining nuqtai nazaridan tasvirlanadi. Bu esa “Gul va Bulbul” dostonidagi xalqchillikni ko’rsatadi. Xalqchillik zamonlarning o’zgara borishi bilan o’zgara bordi. Xalqning milliy xususiyatlarini, o’ziga xos xarakterini ma’naviy qiyofasini aks ettirish bilan birga, uning fikrlash, his qilish fazilatlarini, rasm-rusimlarini, orzu umidlarini gavdalantiradi”[6: 6].

Ushbu doston sujeti juda qiziqarli. Asar bulbulning qizil gulga oshiq bo’lishi voqeasi bilan boshlanadi. “Asarda shoir tomonidan ko’zlangan maqsad – uning “ishqi ilohiyga” bo’lgan e’tiqodi va Bulbulning shu yo’lda vafot etgani oydinlashadi” [3: 37]. Asardagi voqealar rivojiga nazar tashlaydigan bo’lsak, yuqoridagi fikr o’z tasdig’ini topadi. Zero, “poemadagi Sabo – pir, Bulbul – murid va Gul “haqiqiy” muhabbat sifatida talqin qilingan” [7: 66],- degan qarashlar olimlar tomonidan bejizga aytilmagan. “Bulbul: “San pirimsan, Mani yo’l boshlag’uchi rahbarimsan” [3: 37],- deya saboga qarata aytgan ushbu so’zlari bunga yorqin misoldir.

Asarda juda ko’p qushlar ishtirok etadi. Va, albatta, ularning har biri majoziy harakterga ega. Xususan, “Ziynatga berilgan boy – Tovus, maqtanchoq tabib – To’ti, o’ziga bino qo’ygan hofiz – Kabk (Kaklik), riyokor shayx – Qumri, lof uruvchi oshiq – Foxtak (Qashqarg’urrak), yolg’onchi so’fi – So’fiyo (So’fito’rg’ay), Hudhud (Popishak) esa tasbih o’girib o’tiruvchi xudbinlarning tipik vakili bo’lgan insonlarni gavdalantiradi” [3: 38].

Doston tamomila irfoniy harakterga ega bo’lib, u o’zida tasavvufiy qarashlarni aks ettiradi. Asardagi gul, bulbul, sabo obrazlari o’zida juda katta mazmun yuklanganligi bilan alohida ajralib turadi. Dostonda “Bulbulning oxirida qafasga tushib qolib, oh urib o’lgani esa tamoman so’fiyona mohiyat kasb qiladi, ya’ni Bulbul – jasad qafasda uning komil muhabbatining nishonasi – ohi tan – qafasdan qutuladi va o’z muhabbati bilan qorishib ketadi” [7: 66].

“Aytish mumkinki, Salohiy muallif nutqida XVIII asr adabiy tili me’yorlariga alohida e’tibor beradi. Bunday ta’rif-tavsiflar personajlar tilida ham kuzatiladi. Salohiy asardagi har bir obraz dunyoqarashi va ruhiyatini qahramonlar tili orqali ifodalab, tasvir vositalaridan, monolog hamda

dialoglardan unumli foydalanadi. Shoir bu orqali qahramonning ruhiy ahvoli va iztiroblarini kengroq yoritishga intiladi. Bu jihatdan Bulbul-Humo, Bulbul-Tovus, Bulbul-To'ti, Bulbul-Kaklik, Bulbul-Qumri, Bulbul-Foxta, Bulbul-So'fi, Bulbul-Hudhudlarning dialog va monoglari e'tiborga loyiqdir"[8: 3].

XVIIasrning oxiri XVIIIasrning o'rtalarida yaratilgan "Gul va Bulbul" dostoni o'zbek epik she'riyatining namunasi sifatida yuzaga kelgan chinakam badiiy asar sifatida o'zbek mumtoz adabiyotida alohida e'tibor bilan talqin etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanova Sh. "To'tinoma" va "Qush tili" turkumidagi asarlarning qiyosiy-tipologik va tekstologik tadqiqi. Fil.f.d...diss. T.: 2016
2. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: Kafolat print company. 2021. 408 b
3. Rahmonova Sh. Falsafiy-irfoniy dostonlarda vazn va mazmun munosabati. Uzbekistan: Language and Culture. 2022. 38 b
4. Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O'zRFASHI, qo'lyozma inv №3402
5. Salohiy. Gul va Bulbul tasviri. O'zRFASHI, qo'lyozma inv №577
6. Sodiqova Y. Salohiddin Salohiyning "Gul va bulbul" dostonining majoziy talqini. Andijon 2013. 64b
7. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. T.: Fan. 1974. 66 b
8. Shodiyeva S. Salohiyning "Bulbul va gul" dostoni lingvopoetikasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2022. 9b
9. Shodiyeva S. Salohiy adabiy me'rosi. Journal of new century innovations. 10b